



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 138 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK JARAYONNI TASHKIL ETISH

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti, PhD

Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi

"Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" yo'nalishi
4 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsning jismoniy, ruhiy, intellektual hamda ijtimoiy kamolotga erishishida ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonlarning ilmiy asosda, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishining hal qiluvchi ahamiyati yoritilgan. Pedagogik jarayonlarni rejalashtirish, ularni samarali amalga oshirish, muntazam nazorat qilish va natijalarni baholash mexanizmlarining ta'lim sifatiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: jismoniy, ruhiy, intellektual va ijtimoiy kamolot; pedagogik jarayon; rejalashtirish; amalga oshirish; nazorat va baholash.

Abstract: This article analyzes the crucial role of scientifically grounded, systematic, and goal-oriented organization of pedagogical processes in educational institutions in ensuring individuals' physical, psychological, intellectual, and social development. The study theoretically examines the impact of planning, effective implementation, continuous monitoring, and evaluation of pedagogical processes on the quality of education.

Key words: physical, psychological, intellectual, and social development; pedagogical process; planning; implementation; monitoring and evaluation.

Аннотация: В статье рассматривается роль научно обоснованной, системной и целенаправленной организации педагогического процесса в образовательной организации как ключевого фактора достижения физической, психической, интеллектуальной и социальной зрелости личности. Теоретически анализируется влияние планирования, эффективной реализации, систематического контроля и оценки педагогических процессов на качество образования.

Ключевые слова: физическая, психическая, интеллектуальная и социальная зрелость; педагогический процесс; планирование; реализация; контроль и оценка.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim bola rivojlanishining boshlang'ich va eng muhim bosqichidir. Bolaning jismoniy, ruhiy, intellektual va ijtimoiy kamolotga erishishi avvalo ta'lim tashkilotida to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayonlarga bog'liq. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlar, o'quv-tarbiya dasturlari, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimi tobora ortib bormoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va baholashning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish eng muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aleksandra Platonova Usova (1898-1965) – maktabgacha pedagogika sohasida ko'zga ko'ringan olim. Pedagogika Fanlari Akademiyasi muxbir a'zosi. U 1930-1941 yillar mobaynida A.I.Gersen nomli Leningrad Davlat Pedagogika institutining Maktabgacha ta'lim kafedrasini, 1945-1960 yillar Maktabgacha ta'lim sektori va didaktika sektorini boshqargan. U maktabgacha yosh davrining o'yin, ta'lim, sensor tarbiya, pedagogik jarayonlarni tashkil etish muammolari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Uning rahbarligida maktabgacha ta'lim tashkiloti programmasi barcha metodikalar bo'yicha qo'llanmalar yaratildi. U tomonidan: "Obucheniye v detskom sadu"



(M-1970 g), "Sensornoye vospitaniye doshkolnikov" (M 1963 g), "Russkoe narodnoye tvorchestvo v detskom sadu" (M-1972 g) kabi manbalar yaratilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya va pedagogik jarayonlarda o'qitish muammolarini ilmiy asosda ishlab chiqqan pedagog olimlar (A.P.Usova, N.B.Mchedlidze, V.I.Loginova, Yu.K.Batanev va boshqalar) "Pedagogik jarayon yaxlit, dialektik va rivojlanuvchi hodisadir. Uning rivojlanish jarayonida asosiy tashkil qiluvchi qismlari: tarbiya va o'qitish, bolalarning uyushtirilgan va mustaqil faoliyatlari, ayrim faoliyat turlari (o'yin, o'quv, mehnat) o'rtasidagi nisbat o'zgaradi" – deb ta'riflanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabdagi butun pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'nalaganligi ular o'rtasida ta'lim-tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni moddiy resurslar bilan tanishtirganda tabiiy resurslar – yer, suv, yer osti va usti boyliklari bularning barchasi tabiat ne'matlari ekanligi, ulardan oqilona foydalanish, suvning inson hayoti uchun zaruriy jihatlari, ichimlik suvi uni isrof qilmaslik, o'lkamizdagi barcha boyliklarni asrab-avaylash kerakligi, tevarak-olam, tabiat, matematika, nutq o'stirish va boshqa pedagogik jarayonlarda o'rgatib borildi.

Inson mehnati bilan yaratilgan bino inshootlar, mashina va mexanizmlar va barcha mahsulotlar bu moddiy mahsulotlar ekanligi tushuntiriladi. Bu yoshdagi bolarni mehnat resurslari ular kim tomonidan tashkil etilganligi kimlarning mehnat qilib mahsulot ishlab chiqarishi, dala, fermer xo'jaligidagi kattalarning ishbilarmonlik bilan boshqara olish qobiliyatlari bilan tanishtiriladi. Endilikda har bir ishni tashkil etishda, albatta, oldin kerakli mahsulotlar yig'ilar, shularga tayanib, kelgusidagi ishlab chiqarish rejalashtiriladi. Bu axborot-informatsion resurs jarayoniga kiradi.

Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalaridan kelib chiquvchi katta guruhlardagi pedagogik jarayon o'ziga xosdir. Bu o'ziga xoslik maktabning ta'lim-tarbiya ishlaridan nusxa ko'chirishgina emas, balki bolalarning ularda maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun zarur bo'ladigan sifatlarni og'ishmay shakllantirishga yo'llangan faoliyat va xulq-atvorlarini maxsus tashkil etilishidir.

Fiziologiya, gigiyena, psixologiya, pedagogika sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijasida MTTda kichikintoylar hayotini tashkil etishning quyidagi prinsiplari yuzaga keldi:

1. Har bir yosh guruxda bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va har bir bolaning har tomonlama rivojlantirishini ta'minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish.
2. Bolalarni yosh guruhlari taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.
3. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigiyenik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob-anjomlar bilan ta'minlash.
4. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash.
5. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini (o'yin, mehnat, ta'lim) tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vaqt ajratish.
6. Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan prinsiplar asosida almashtirib borish MTTning har xil yosh guruhlari bolalar hayotini to'g'ri tashkil etish.

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, o'z-o'ziga xizmat qilish sayrlar o'tkazish gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik jarayonlarda pedagogik texnologiyalar qo'llanilganda bularning samaradorligi diagnostika qilinadi. Bu esa bolaning ta'lim tasiriga ochiq munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'limning samaradorligini boshqarishning algoritmining ya'ni kuzatishning tizimli qoidalari, qo'yilgan o'quv va tarbiyaviy maqsadlarini bajarishda bolalarning qabul qilish faoliyatini kuzatish va tuzatish bilan aniqlanadi.



MTTning pedagogik jarayonda o'yinning tutgan o'rnini juda katta bo'lib, o'yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- o'yin bolalarning mustaqil faoliyati bo'lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo'ladi;
- o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashqil etish shaklidir;
- o'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- o'yin bolalarga ta'lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- o'yin bolalarni o'quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o'yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o'yinning mazmuni, tashqil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o'ynining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko'rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish MTTdagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

MTTning pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, o'yinda, mehnatda, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari xalq etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni o'stirish va savod o'rganish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar MTT dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2013.
2. Chorjeva D. Improving students' readiness for pedagogical diagnostics of preschool children // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
3. Choriyeva D. Tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirishda pedagogik texnikaning roli // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – T. 1, № 24. – B. 101–103.
4. Chorjeva D. A. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, – 385 b.
5. Chorjeva D. Improving students' readiness for pedagogical diagnostics of preschool children // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
6. Chorjeva D. Diagnostics as a branch of psychological and pedagogical knowledge and type of research activity of a teacher // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
7. Choriyeva D. Oila va maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ijtimoiy vazifalar // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1, № 32.
8. Chorjeva D. Diagnostics as a branch of psychological and pedagogical knowledge and type of research activity of a teacher // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
9. Чориева Д. А. Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования // Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации. – 2019. – С. 86.
10. Чориева Д. А. Методы и приёмы работы с агрессивными детьми // Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2021. – С. 152–161.
11. Чориева Д. А. Педагогик-психологик диагностика фаолияти билан шуғулланувчи шахсга қўйиладиган талаблар // Образование и инновационные исследования: международный научно-методический журнал. – 2022. – № 9. – С. 99–102. – DOI: 10.53885/edinres.2022.9.09.014.
12. Chorjeva D. A. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, – 385 b.
13. Sheraliyevna O. H. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – T. 8, № 4. – B. 70–75.
14. Sheraliyevna O. H. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining grammatik to'g'riligini shakllantirish // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – T. 10, № 1. – B. 179–185.
15. Maxmutazimova Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – T. 3, № 1.
16. Raxmatovna M. Y. The importance of developing technical creativity and engineering skills in preschool children. – 2025. – Shokh Library.
17. Maxmutazimova Y. The role of the kindergarten teacher in the formation of the child personality // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 546–548.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.